

## SOVET MUSTAMLAKACHILIGI SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASI VA UNING BOLALARGA TA'SIRI

*Baxrom Djamolovich Djalolov*

*Namangan davlat chet tillar instituti o'qtuvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xalqlarning millatlararo totuvlik, o'zaro bag'rikenglik va hamjihatlikda tinch-totuv, yurt ravnaqi, vatan obodligi yo'lida hanjihat bo'lib yashayotganliklari, buning uchun yurti-mizda huququy poydevorning yaratilishi, shu bilan birga, respublikamizda yashayotgan turli millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi faol ishtiroki borasidagi fikr-mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, sovet mustamlakachiligi sha-roitida millatlararo munosabat-larning ahvoli va yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yuzaga kelgan muammolar tanqidiy tahlil qilib beriladi.

**Tayanch-so'z-iboralar:** millatlararo totuvlik, bah'rikenglik, ta'lim tizimi, millatlar, "yagona sovet xalqi", ko'chirib keltirish, baynalmilalchilik siyosati, "Onalik shuhrati" medali, maktablar, maktabgacha tarbiya muassasalari, milliy-madaniy markazlar, milliy urf-odatlar, milliy an'analar

## ПРОБЛЕМА МЕЖЭТНИЧЕСКОГО СОГЛАСИЯ В УСЛОВИЯХ СОВЕТСКОГО КОЛОНИАЛИЗМА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ДЕТЕЙ

*Бахром Джамолович Джалолов*

*Преподаватель Наманганского государственного  
института иностранных языков*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается межэтническое согласие, взаимная толерантность и сплоченность народов Узбекистана, их мирное и согласованное сосуществование ради процветания страны и благосостояния Родины, а также создание правовой основы для этого. В статье также отражается активное участие различных этносов, проживающих в республике, в социально-экономической жизни страны. Кроме того, в статье проводится критический анализ состояния межэтнических отношений в условиях советского колониализма, выявленных недостатков и возникших проблем.

**Ключевые слова:** межэтническое согласие, толерантность, система образования, народы, "единый советский народ", депортация, политика интернационализма, медаль "Материнская слава", школы, дошкольные учреждения, национально-культурные центры, национальные обычаи, национальные традиции.

(7th international scientific and practical conference)

## THE ISSUE OF INTERETHNIC HARMONY UNDER SOVIET COLONIALISM AND ITS IMPACT ON CHILDREN

*Bakhrom Djamolovich Djalolov.*

*Lecturer at Namangan State University of Foreign Languages*

**Abstract:** *This article discusses the interethnic harmony, mutual tolerance, and solidarity of peoples in the Republic of Uzbekistan, who live peacefully and harmoniously for the prosperity and welfare of the country. It also highlights the creation of a legal framework for this purpose and emphasizes the active participation of various nationalities in the social and economic life of the Republic. Furthermore, the article critically analyzes the state of interethnic relations under Soviet colonialism, the shortcomings that were allowed, and the problem that arose.*

**Key terms:** *interethnic harmony, tolerance, education system, nationalities, "Soviet people," deportation, internationalism policy, "Motherhood Glory" medal, schools, preschool educational institutions, national cultural centers, national customs, national traditions.*

**Kirish:** O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda 130 ortiq millatlarning istiqomat qilishi va hamda ularning millatlaro totuvlik, o‘zaro bag‘rikenglik va hamjihatlikda tinch-totuv yashashlari uchun barcha imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratilganligi, mamlakatimizda buning huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy asoslarining poydevori o‘rnatilganligi hech kimga sir emas albatta. Ma‘lumki, Sovet mustamlakachiligi sharotida O‘zbekistonda turli millatlarning majburan ko‘chirib keltirilgan millatlarning ijtimoiy-iqitsodiy ahvoli va ularning far-zandlarini ta‘lim-tarbiyasi hamda tuzum manfaatlariga xizmat qiluvchi mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida olib borilgan chora-tadbirlar maqolada tanqidiy-tahliliy ko‘rsatib berilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Mavzuni yoritishda asosan Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida ko‘plab misollar keltirilib, respublikadagi bugungi kundagi millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash hamda bag‘rikenglikni ta‘minlash masalalarida bir muncha mulohazalar keltirilgan, jumladan, “Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi” (7-jild. Toshkent.:O‘zbekiston. 2023) asarida respublikada turli milliy madaniy markazlar va ular faoliyatni qo‘l-lab-quvvatlash kabi masalalar ilgari surilsa, “Inson qadri, uning huquq va erkin-liklari, qonuniy manfaatlar uchun” (Toshkent.:O‘zbekiston. 2022) deb nomlangan asarida esa O‘zbekistonda yasahyotgan turli-tuman millatlarning ahilligi va ularga yaratilgan shart-sharoitlar va bag‘rikenglik hamjihatlikning en yuksak namunasi sifatida e‘tirof etilganligini ko‘rish mumkin.

**(7th international scientific and practical conference)**

Tarixchilar A. Avtorxonovning “Kreml saltanati” (Toshkent.:Cho‘lpon. 1993) va Boymirza Hayitning “Turkiston:Rossiya va Xitoy oralig‘ida” (XV asr ikkinchi yarmi-XX asr so‘nggiga qadar) (Toshkent.:Yangi asr avlodi. 2023) asarlarida sovet hukumati hukmronligi yillarida millatlarning haq-huquqlarini kamsitilishi va milliy masalada olib borilgan siyosatning fojeali oqibatlarini tanqidiy ko‘rsatilib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:**Mavzuni yoritishda o‘zaro qiyoshlash, manbalarni tahlil qilish, tarixiy baholash kabi kabi metodik usullaridan unumli foydalanildi.

O‘zbekiston bolalarining boshqa millatlarga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalangani, bu borada ta‘lim-tarbiya muassalari bo‘lmish maktablarda olib borilayotgan ijtimoiy-ma‘rifiy siyosatning pirovar maqsadi, ham shunga qara-tilgani millatlaro totuvlik g‘oyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “ko‘p millatli xalqimizning eng katta yutug‘i-mustaqillik yillarida yillarida erishgan eng katta boyligi, “Tur-kiston-umumiy uyimiz” degan shior ostida mamlakatimizdagi millatlaro do‘stlik va ahillikni saqlay olganimiz, bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat yashab kelayotganligining o‘zi xalqimizning eng katta manaviy yutug‘idir [1.-B. 25].

Bir necha millat vakillarining bir oila bo‘lib, hamjihatlikda yashab kelayot-gani, xususan, Toshkent viloyati, Pskent tumani, “Oqtepa” mahallasida yashab kelayotgan Jonsaidovlar oilasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Oilaning eng kattasi bo‘lmish otamillati tojik, ona-qozoq, yetti nafar kelini esa, o‘zbek, qozoq, rus, uyg‘ur, guruzin va chechen millatiga mansubligi yurtimizda “millatlararo totuv-likning yorqin namunasi” sifatida misol qilib keltirish mumkin[2.-B. 330].

Respublikamizda millatlaro totuvlik va o‘zaro bag‘rikenglikning huquqiy aso-si sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Konstititsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi[3.-B.6]” deb yozib qo‘yilganligi, jahon hamjamiyatning O‘z-bekistonda millatlararo totuvlikning ta‘minlash yo‘lidagi yuksak e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

2017 yil 19 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va ushbu farmon bu sohadagi islohotlarning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi [4.-B. 81].

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan, mamlakatimizda millatlaro hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun, bir muncha chora-tadbirlar va takliflar ilgari surildi. Jumladan, millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materillarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish, millatlararo totuvlikni

(7th international scientific and practical conference)

mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarni barvaqt oldini olish, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha ta'sir-chan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda amalga oshirishdek muhim maqsad-lar kun tartibiga qo'yildi va davlatimiz ichki siyosatida Prezidentimizning yuqo-ridagi mulohazalari ushbu sohada dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda[5.-B. 281].

Xalqimizda boshqa millatlarga nisbatan mehmondo'stlik, bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lgani tarix sahifalarida ham muhrlanib qolganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1917 yil oktabrda davlat to'ntarishi orqali hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar o'z davlatlarini mustahkamlash, bu yo'lda olib borilgan zo'ra-vonlik, kuch ishlatish bilan olib borgan siyosati, Markazga qaram bo'lib qolgan O'zbekiston xalqini jiddiy sinovlardan o'tkazdi.

Xalqlarni boshiga solingan kulfatlar, ularni o'z hududidan badarg'a qilinishi, ko'chirish siyosati, turli ayblovlar bilan uzoq yillar davomida, Sovet Ittifoqi hududlarda istiqomat qilib kelgan millatlarni O'zbekistonning turli hududlariga ko'chirib keltirilishi, 1930-1940 yillarda sodir bo'lib, sovet hukumatining "zo'ra-vonlik siyosati qurboni" bo'lgan xalqlar, koreyslar, Qrim tatarlari, mesxeti turklar va boshqa millatlar, respublikamizning turli hududlariga olib kelinib, joylashtirildi. Milliy sohada sun'iy baynalmilal birlik-"yagona sovet xalqi"ni mustahkamlash strategiyasidan kelib chiqib, partiya yig'ilishlarida jadallik bilan "millatlarni birga qo'shilishi" zarurligi ta'kidlanar edi. [6.-B. 96].

Biroq o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, an'analarini, fazilatlarini hamda ko'chirib kelingan xalqlarning "metindek bardoshi" sovet hukumatining birma-bir amalga oshirgan mudhish siyosiy o'yinlaridan iborat sinovlari ham yengolmadi.

Sovet hukumatining "bayanalmilalchilik siyosati" O'zbekistonga 120 dan ortiq turli millatlar va elatlardan amalda "yagona sovet xalqi" shakllantirish siyosatini ro'yobga chiqarish uchun jadal ishlarini olib bordi. Buni misoli sifatida, "sovet ta'limi va tarbiyasining beshigi" bo'lgan O'zbekistondagi bolalar bog'chalarida 1969 yildan boshlab, barcha millatlar bolalariga rus tilini o'rgatish boshlanib, bar-cha harakat "yagona, baynalmilal til yaratish"ga qaratildi [7. -B. 481].

Bundan ko'zlangan maqsad-"sosalizm g'alab qilgach, tillar "bir umumiy xalqaro tilga birlashadi, bu yangi til bo'ladi, deb respublikalarda asosy e'tibor rus tili-ni kengroq yoyilishi va boshqalarni rus tilini o'rganishga qiziqishini har tomon-lama rag'batlantirish siyosati olib borildi[8. -B. 67]. Buning oqibatlarini kop'lab millatlarning ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy hayotida salbiy iz qoldirdi.

Tarixiy tadqiqotlar tahlili va manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki 1990 yil-ga qadar Sovet Ittifoqida 100 dan ortiq millatlar va elatlar ta'lim tizimida 55 tilda o'qitilganligi, biroq ularning huquqlari va urf-odatlarini kamsitish, ularni milliy, diniy, urf-odat hamda qadriyatlarini yo'qotish, ularga qarshi kurash, ko'plab mil-latlarni tili va madaniyati yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi.

**(7th international scientific and practical conference)**

Xususan, birgina O'zbekiston hududida 1939-1940 yillarda maktablarda turli millat vakillari bo'lgan bolalarni o'qitish 28 tilda amalga oshirilgan bo'lsa, 1987 yilga kelib atigi 8 ta tilda tushirildi, qolgan 20 ta milliy tilning yo'qolib ketganligi kuzatilib bu millatlaro munosabatlar tarixidagi fojeali jarayon edi[9. -B.13].

Bu tillarni aniqlash, O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi maktablar bu tillar-ga ixtisoslashgani bu kabi savollar tarixchilarning oldidagi o'rganilishi kerak bo'l-gan mavzulardan biridir, albatta. Sovet hukumatining mudhish, milliy siyosatining salbiy oqibatlaridan yana biri, 1926 yilda Sovet imperiyasi hududida 194 ta millat va elat aniqlangan bo'lsa, "yagona sovet xalqi" siyosatining olib borilishi tufayli 1979 yilga kelib, ularning soni 101 taga tushib, 93 ta millat o'z milliy qiyofasini yo'qotdi va umumiy nom bilan "Sovet fuqarosi" deb ataladigan bo'ldi[10. -B. 13].

O'zbekistonda esa aksincha, 151424 nafar Qrim tatarlari, 110 ming mesxeti turk, 8366 nafar nemis, 100 ming polyak va boshqa millarlarning O'zbekistonga sun'iy ravishda zo'ravonlik ko'chirilishi tufayli O'zbekistonda turli-tuman millat-larning soni ortib bordi. Jumladan, O'zbekistonning hozirgi chegaralari doirasida 1926 yilda, 91 ta millat aniqlangan bo'lsa, 1959 yilda 113 ta, 1989 yilda 120 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilayotganligi aniqlandi, bulardan atigi yettitasiga milliy tilida maktabda o'qish imkoniyatini saqlab qolgan bo'lsada, qolgan 113 tasi yuqorida aytganimizdek, sovet hukumatining zo'ravonlik siyosati tufayli o'zining milliy tilini yo'qotishga mahkum qilindi[11. -B. 88].

Buning uchun sovet hukumati, boshqa millatlarni majburiy ravishda kirill alif-bosini qabul qildirish, tub aholi orasida sovet tuzumiga sodiq kadrlar yetishtirib, ularni sovet davlati manfaatlariga xizmat qiluvchi shaxslrga aylantirish, millatlarni o'z milliy tarixlarini o'rganishga to'sqinlik qilish, turli millatlardan "yagona sovet xalqi"ni yaratish, turli millat bolalarini ajdodlarining o'tmishdagi madaniy merosi va tarixidan uzoqlashtirish yo'llari bilan millatning mavjudligini tugatish siyosati olib borildi [12.- B. 519].

Garchi sovet hukumatini zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlarga qanchalik bosim va kuch ishlatmasin, o'zbek xali ularni o'z yerida himoyasiga olishga, ularni iqti-sodiy-ijtimoiy, eng asosiysi, ruhiy-ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlashga, va ularni yurtimiz hayotida har tomonlama moslashiviga shart-sharoit yaratib berishga harakat qildi.

Barcha ko'chirib keltirilgan xalqlarga o'zbek xalqi tomonidan yuksak ehti-rom va hurmat ko'rsatilib, ularni begonadek emas, balqi quchoq ochib kutib olishi natijasida ularning barchasi respublikamizning ijtimoiy-iqitsodiy va ma'naviy hayotida faol ishtirok eta boshlashiga zamin hozirladi.

Jumladan, O'zbekiston sharoitida qa'tiy va shijoatli mehnati bilan o'zini ko'rsatgan bosh-qa millatlar kabi serfarzand koreys onalarini har tomonlama rag'batlantirib kelib qarorlar qabul qilindi.

**(7th international scientific and practical conference)**

Xususan, 1946 yil 23 avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan 5-6 nafar farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazgan koreys onalarining bur guruhi jumladan, Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidan 6 nafar bolaning onasi Kim Chen Gim, Yuqori Chirchiq tumanidan 6 nafar bolaning onasi Shegay Den Ay III-darajali “Onalik shuhrati”, Toshkent viloyati Qorasuv tumanidan 9 nafar bolaning onasi An In Gen I-darajali “Onalik shuhrati” medallari bilan taqdirlandilar [13. -B. 67].

Keyingi yillarda ham turli millatlarning farzandlarini ta’lim olishlari, har tomonlama rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilib, hattoki otabobolaridan qolgan milliy urf-odatlarini saqlab qolishga, xalq og‘zaki ijodi, milliy raqs va qo‘shiqklarini, marosimlari va an‘analarini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Masalan, Sovet imperiyasi inqirozga uchrab hali parchalanmagan bir sharoit-da O‘zbekiston Madaniyat vazirligi qoshida 1989 yilda millatlaro Madaniyat markazi tashkil etilib, uning tarkibida 12 ta, jumladan qozoq, koreys, arman, ozarbay-jon, tojik markazlari faoliyat ko‘rsata boshladi [14. -B. 272].

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilib, o‘z erkiga ega bo‘lgach, yurtimizda yashab, istiqomat qilib kelgan turli tuman millatlarini irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, O‘zbekiston fuqarosi sifatida huquq va erkinliklarini har tomonlama ta’minlash, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, ishonch, vatanparvarlik, do‘stlik hamda yuksak ehtirom ko‘rsatish yo‘lida dadil siyosiy tadbirlarni amalga oshirish yo‘lidan bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ushbu sohada olib borgan izchil siyosati tufayli, 2023 yilga kelib, mamlakatimizda 150 ta milliy madaniy markazlar ish yuritayotgani, o‘zbek tili bilan birga, qoraqolpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritib kela-yotgani, maktablarimizda ta’lim-tarbiya 7 ta tilda olib borilayotganligi dunyo amaliyotida noyob tajriba sifatida yuksak darajada e‘tirof etildi [14.-B. 231].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, turli-tuman millat farzandlarini salohiyati, imkoniyatlarini namoyon etishda, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlar, yurtimizda millatlararo totuvlikni ta’minlash, farzandlarimizni bag‘rikenglik va vatanparvarlik kabi fazilatlar bilan tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan say’i-harakatlarimizning mustahkam podevori sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Zeroki, respublikamizning eng katta boyligi, aslida mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqimiz desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/ Источники вa литература/ References**

1. Mirziyoyev. Sh. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. Toshkent.:O‘zbekiston. 2023.
2. Mirziyoyev. Sh. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. Toshkent.:O‘zbekiston. 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.:O‘zbekiston. 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning faoliyati xronikasi. Toshkent.:O‘zbekiston. 2022.
5. Mirziyoyev. Sh. Yangi O‘zbekiston-taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2023.
6. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-tom. Toshkent.:Sharq.2000.
7. Shamsutdinov. R. Mo‘minov. X. O‘zbekiston tarixi. Toshkent.:”Sharq”. 2013.
8. Avtorxonov. A. Kreml saltanati. Toshkent.:Cho‘lpon. 1993.
9. Abdurahmonov. F. Milliy siyosat va til muammolari. //Saodat. 1990. №3.
10. Abdurahmonov. F. Milliy siyosat va til muammolari...
11. Djalolov. B. “Sovet mustamlakachigi davri: demografiya va depor-tasiya”./Tarix tilga kirganda...Davriy to‘plam. №3. Namangan.:2009.
12. Boymirza Hayit. Turkiston:Rossiya va Xitoy oralig‘ida (XV asr ikkinchi yarmi-XX asr so‘nggiga qadar). Toshkent.:Yangi asr avlodi. 2023.
13. Namangan viloyat davlat arxivi. 13-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 990-ish.
14. O‘zbekistonning yangi tarixi. “Mustaqil O‘zbekiston tarixi”. 3-tom. Toshkent.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2009.
15. Mirziyoyev. Sh. Yangi O‘zbekiston-taraqqiyot strategiyasi asosida demo-kratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent.:O‘zbekiston. 2023.